



## MUSIQA TA'LIMINI AVTOMATLASHTIRISH- KOMPYUTERLASHTIRISH ASOSLARI

**SHERMATOVA Xilola Mirzayevna**

*FarDU o'qituvchisi*

**VALIJONOVA Xabibaxon Nabijon qizi**

*FarDU talabasi*

**MAXMUDOVA Marjonabonu Maribjon qizi**

*FarDU talabasi*



<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2023-2-129-132>

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada ta'lif dargohlarida musiqa ta'limi fanlarini zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qitimishini samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Xususan, Sibelius nota muharririning o'qituvchi va talabalar faoliyatidagi o'rni va ahamiyati atroflicha ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** musiqa talimidagi axborot texnologiyalar, Sibelius, nota muharrir, kompyuter dasturi.

### ABSTRACT

*This article discusses the effectiveness of teaching music education using modern information technologies in educational institutions. In particular, the role and importance of the Sibelius notation editor in the activities of teachers and students has been carefully considered.*

**Key words:** information technology in music education, Sibelius, note editor, computer program.

### KIRISH (Introduction)

Hozirgi kunda musiqa bo'limlari talabalari tomonidan o'quv jarayonini intensivlashtirish, o'qitishni individuallashtirish, qayta aloqa o'rnatish, talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan materiallani optimallashtirish uchun AKTdan yetarli foydalanilmayotganligi kuzatilmoqda.[3] Kompyuter bilan jihozlangan sinf xonalar nafaqat axborot texnologiyalarini o'rganish, balki ularni mutaxassislik fanlari, xususan, musiqiy ta'lif yo'nalishi predmetlarini o'rganishda qo'llash uchun ham zarur. Musiqa fanlari o'qituvchilari dasturchilar bilan doimiy muloqotida bo'lishlari kerak.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa bo'limi talabalari va o'qituvchilari uchun "Encore", "Final", "Sibelius" kabi kuchli va ommabop musiqa dasturlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Sibelius musiqa nota muharriri 1986 yilda Ben va Jonatan Finnlar tomonidan ixtiro qilingan va birinchi marta 1998 yilda ishlab chiqarilgan. Dasturning va uni ishlab chiqargan kompaniyaning nomi finlyandiyalik bastakor Yan Sibelius nomiga to‘g‘ri keladi. Bu nom kompaniya asoschilarining familiyasi – Finn bo‘lgani uchun ham tanlangan degan fikrlar mavjud.

Sibelius nota muharriri - eng kuchli zamonaviy nota yozuvi tizimlaridan biridir. Unda 450 dan ortiq turli ish asboblari mavjudki, ularning har biri bilan turli kalitlarda yoza olish maxsus tizimlari ko‘zda tutilgan.[1]

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Sibelius nota muharirini musiqiy ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan institut talabalari tomonidan o‘rganish tizimli, ilmiy, yaxlitlilik, ko‘p funksionallik, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslangan.




Sibelius nota muharriri belgisi.

Ushbu dasturdan foydalanish usuli murakkablikni oshirib borish prinsipi va har bir talabaning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda bir necha ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri dasturning texnik elementlarini o‘rgatish;
- maxsus musiqiy fanlarni o‘rganishda dasturdan foydalanish;
- kasbga yo‘naltiruvchi musiqa fanlarini o‘rganish jarayonida dastur elementlarini joriy qilish;
- talabalarning kasbiy darajasini oshirish uchun dasturdan foydalanish;
- mактабда va bolalar bog‘chasida pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun dastur elementlariga tayanish;
- musiqa talimi fanlarini pedagogika, psixologiya va boshqalar kabi umumta’lim fanlari bilan bog‘lash uchun dastur elementlaridan foydalanish. [7-9]

Musiqa muharriri bilan tanishganidan so‘ng talaba musiqa-kasbiy faoliyat sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun undan foydalanish tajribasini oladi, musiqiy kompyuter savodxonligi asoslarini o‘rganadi, pedagogik va ijodiy faoliyatda innovatsion ko‘nikmalarini qo‘llashni, bolalar musiqa ijodiyotini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini o‘rganadi.



Sibelius kompyuter dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, maxsus musiqiy fan darslarini o‘qitish uchun mamlakatimizda yangi yondashuv ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Rossianing Sankt - Peterburg shahrida individual ta’lim darslariga nisbatan turli xil tembr, temp, aranjirovka ishlarini bajarish bilan kompyuter dasturlarini qo‘llashning yangi usuli sinovdan o‘tkazilgan. "Jo‘rnavozlik", "Qo‘sishimcha cholg‘u", "Cholg‘u ijrochiligi va ansambl" fanlaridan kompyuter dasturidan foydalangan holda talabaning musiqiy materiallaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha muvaffaqiyatli tadqiqotlar o‘tkazilgan.[2]

### XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda, ayniqsa musiqa ta’limida, mamlakatimiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida zamonaviy kompyuter dasturlardan foydalanish zarur va muhim. Biroq, kompyuter - talaba, o‘qituvchi, qolaversa insonning yordamchisi bo‘lib qolishi yanada muhim. Uning ijodkor inson o‘rniga ish bajaruvchi vositaga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari ko‘nikmalarini va ularni qo‘llash usullarini muvozanatini saqlash, o‘qituvchilarining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muammoning to‘g‘ri yechimini topish o‘qituvchining tajribasi, mahorati va shaxsiy insoniylik dunyoqarashlariga bog‘liq.[2]

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

- Getman V.V. Musiqachi-o‘qituvchi shaxsini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatni // O‘rta kasb-hunar ta’limi. 2018 yil 9-son.
- Odinokova E.V. Texnik universitetning ta’lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari // O‘rta kasb-hunar ta’limi. 2019 yil. 8-son.
- Antonov L. Yozuvlarni tiklash // "Yosh texnik", No 2. -M., 2016 yil.

4. Svetlichny S. Konserva musiqasi // "Ovoz muhandisi", No 5. -M. 2010 yil.
5. Umurov N.K. Musiqa muharriri SIBELIUS 1.1. (tuzilish, imkoniyatlar va foydalanish). T., 2018 yil
6. Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang‘ich Sinflarda Ta’lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(13), 69-74.
7. Шерматова, Х. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культуро-важный фактор образовательного процесса. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 723-726.
8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo ‘llanilishi. In *International scientific and practical conference "the time of scientific progress"* (Vol. 2, No. 5, pp. 107-113).
9. Shermatova, X.M., Maxammadjonov, J. (2023). Fan va ta’lim rivojlanishining zamонавиy tendensiyalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 788-792.
10. Yuldasheva, G. I. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 466-468.
11. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Scientific progress*, 3(1), 372-376.
12. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo ‘llanilish istiqbollari. *Science and innovation*, 1(B8), 5-9.
13. Тешабаева, О. Н., & Шерматова, Х. М. (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. *Scientific progress*, 3(1), 44-51.
14. Shermatova, Z. I. L. O. L. A., & Shermatova, H. I. L. O. L. A. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. *Интернаука*, 4(1), 46-47.
15. Шерматова, Х. М. (2018). Параллельное микропрограммирование алгоритма вычисления стандартных функций.
16. Kh, K. Z., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new information technologyies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 167-170.
17. Xokimovna, K. Z. (2022). Savodxonlikni Oshirish Jarayonida Aktdan Foydalanish. *Miasto Przyszlosci*, 30, 88-90.
18. Askarova, S. M. (2022). Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1067-1071.
19. Sidikjonovna, I. D., & O’rinboyevich, T. F. (2022). Axborot Texnologiyalarini O’qitish Tizimiga Integratsiyalash. *Miasto Przyszlosci*, 29, 283-285.